



“BOBURNOMA” DA BOBURIYLAR DAVLATI HUDUDLARIDA SHAHARSOZLIK VA EKOLOGIK MADANIYATNING SHAKLLANISHI

Abdurasulova Mehribon Ekinovna

Samarqand davlat chet tillar instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Zahriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida boburiylar davlati hududlarida shaharsozlik va ekologik madaniyatning shakllanishi borasidagi ma’lumotlar jamlanib, ulardagi xayvonot va o’simliklar olami, etnik-hududiy holati geografiyasi, umuman olganda, tarixiy toponimiyasi haqida keng ma’lumotlar yoritib berilgan.

Kalit soʻzlar: Boburnoma, Pokiston, Ali masjid, Ali masjid suyi, Andaroba qoʻrgʻoni.

“Boburnoma” chigʻatoy-turkiy tilida yozilgan va unda arab, fors va hind tillaridan ham keng foydalanilgan. Ushbu tarixiy-madaniy meros XIV–XVI asrlar davri tarixini oʻrganishda muhim manba sifatida xizmat qiladi va uni har tomonlama tadqiq qilish, chuqur oʻrganish zarurligi Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev qarorida ham oʻz aksini topgan. Mazkur toponimlar hududiy jihatdan asosan Markaziy Osiyo (Movarounnahr, Xuroson va Afgʻoniston), Pokiston va Shimoliy Hindiston hududiga toʻgʻri keladi. “Boburnoma”dan Markaziy Osiyo va Shimoliy Hindistonning tarixiy-geografiyasiga tegishli ma’lumotlar, hususan, oʻlkaning ma’muriy-hududiy holati, oronim (togʻ, vodi, dasht va choʻllari) va gidronimlari (suv ma’danlari), oykonimlari (shahar va qishloqlari), xayvonot va o’simliklar olami, etnik-hududiy holati geografiyasi, umuman olganda, tarixiy toponimiyasi haqida keng ma’lumotlar olsa boʻladi.

Ali masjid – Pokistonning Xaybar-Paxtunxva viloyatida, Kobul Peshavar avtomobil yoʻli ustidagi aholi maskani. Qoʻrgʻoni Xaybar dovonining eng tor qismida, Safedkoʻh togʻ etaklarida joylashgan. Ali ibn Abu Tolib (r.a.) xotirasiga atalgan ziyoratgoh va masjid (mahalliy afsonlarga koʻra, bu yerdagi harsangtoshlarda hazrati Alining qoʻl-panja izlari bor) boʻlganligi sababli “Ali masjid” nomini olgan. Bobur Hindiston yurishini boshlab, 1525 yil noyabr oylarida Haybar dovonini oshib Ali Masjidga kelib toʻxtaydi. Qoʻrgʻonning kichikligidan Bobur baland tepalikka chodir tikib, oʻzi yuqoridan turub qoʻshinning olov yoqqan mashʼaliga mahliyo boʻlganini yozadi: “Oxshom andin koʻchub, Alimasjidgʻa tushuldi. Bu yurtning torligʻidin doim men bir pushta ustiga tushar edim, cherik eli tamom bir qoʻlda tushar edikim, men



tushgan pushta borig'a mushrif (yondosh) edi. Kecha cherik elining o'tidin ajab yaxshi charog'on bo'lur edi".

Ali masjid suyi – haybar daryosi. pokistonning xaybar paxtunxva viloyatidagi kichik daryo, soy. safedko'h tog'laridan boshlanib, Xaybar dovoni bo'ylab Ali Masjid hududidan oqib o'tadi. U yerdan daryo o'z yo'nalishini janubi-sharqqa burib, Jamrud vodiysi orqali Peshovar hududiga yetib boradi. Bobur 1519-yil noyabr-dekabr oylarida Hindistondan Kobulga qaytganda ushbu soy orqali Xaybar dovoniga chiqadi va bu yerdagi Xizrxayl pushtun qabilalarining yo'lto'sarlik va qaroqchiliklariga barham beradi: "O'shul qaror bila suv yoqasidin sahar ko'chub, Jom[rud]din o'tub, Ali Masjid suvining chiqishida tushuldi.... Xaybar ko'talidin oshib, ko'tal tubiga tushuldi. xizrxaylidin ko'p noshoyista harakatlar zohir bo'lub edi....Alarg'a ta'dibe qilmoq va go'shmole bermoq vojib va lozim ko'rundi" .

Anbahir (Ambahar) – Pokistonning Xaybar-Paxtunva viloyatida, Svat (Savot) daryosining chap sohilida joylashgan tuman, hozirgi Ambahar shahri va undagi dovon nomi. Bobur davrida ma'muriy jihatdan Bajavr viloyatiga tegishli edi. Bobur 1519-yil bahor oylarida Bajavr viloyatidagi Yusufzayi va Muhammadzayi afg'onlarini bo'ysundirish uchun Anbahir dovoni orqali o'tganligini eslatadi: "Anbahir va Paniyalii yo'li bila yurub, Hashang'arning yuqqori yoni bila Savod suyini o'tub, Yusuf zayining singiri Mohura to'g'risi tuzdag'i o'lturg'on afg'onlarnikim, Yusuf va Muhammad zayi bo'lg'ay, ilg'ob chopmoq kerak".

Andaroba qo'rg'oni (Andarona) – Pokistonning Panjob viloyatida, Islomobod shahrining janubida, Suhon (hozirgi Soan) daryosining chap sohilida joylashgan qadimiy Anderana qo'rg'oni. Dehli sultonligi davrida janjuha qabila sardorlari tomonidan boshqarilgan. Boburning xabar berishicha, qo'rg'on Malik Hastning otasiga tegishli bo'lgan, keyinchalik gakkar qabila boshlig'i Haatiy Gakkar tomonidan vayron etilgan. 1519-yil 17-martida Bobur gakkarlarni bo'ysundirish maqsadida Andarobaga keladi va qo'rg'onni vayron etilganiga guvoh bo'ladi: "Panjshanba kuni, oyning o'n beshida ko'chub, Andarobag'akim, Suhon suyining yoqasidadur, tushuldi. Bu Andaroba qo'rg'oni Malik Hastning otasig'a qadimdin taalluq ekandur, Haatiy Gakkar Hastning otasini o'lturg'ondin so'ng, buzulubtur, ul fursatta buzuq edi" .

Bagyallar yurti – Pokistonning Panjob shtati Talagang tumanidagi hozirgi Bagyal (Bagyal) va Budhial (Budhial) qishloqlari. Savan daryosi (Sind daryosining chap irmog'i)ning o'ng sohilida joylashgan. Janubiy hududlaridan sharqdan-g'arbga qarab Ko'hi Baal-Naat-Jo'gi (Koh-e-Baal Naath Jogi) tog' tizmasi cho'zilgan. Hindiston yurishi mazkur manzil orqali o'tgan bo'lib, Bobur 1525-yil dekabr oylarida ushbu yurtda to'xtaganini eslatadi: "Sinddin besh ko'ch ko'chub, oltinchida Jud tog'iga payvast Balnat jo'gining tog'ining



tubida Bagyallar yurti rudqa kelib tushuldi”. “Boburnoma”da qayt etilgan Bagyal rudi – Gandiya-Nadi daryosi (Savan daryosining irmog‘i) hisoblanadi.

Bajavr (Bajo‘r, Bajaur) – Pokistonning Xaybar-Paxtunxva viloyatidagi qadimiy, tog‘li tuman va vodi. Hozirgi nomi – Bajaur. Ma‘muriy markazi Xor (Kxar) shahri, Kobuldan 290 km shimoli-sharqda joylashgan. Bajavr vodiysi Hindukush tog‘larining Kunar tizmasidagi hushmanzara yerlardir. Aholisi asosan pushtun tilida so‘zlashuvchi tarkaloniy va yusufzayi afg‘onlaridan iborat. Bajavrdan qadimgi Gandxara madaniyati, Kushonlar davriga oid ko‘plab me‘moriy obidalar, ibodatxona xarobalari topilgan. Bajavrning janubida, Peshovar vodiysidan ko‘rinib turadigan Kohi-Mor cho‘qqisida, miloddan avvalgi 326-yilda Aleksandr Makedonskiy Niysa (Nysa) qal‘asiga asos solgan. 1398-yildan Amir Temur davlati tarkibiga kiritilgan. Kobuldan Hindistonga olib boradigan qadimiy yo‘llardan biri Bajavr orqali o‘tgan. Hududi bo‘ylab Panjkura (Panjkora; Svat daryosining irmog‘i), Jandol (Jandool Kwar), Boboqora (Babukara Kwar) va Vatalai (Watalai Kwar) daryolari va boshqa katta-kichik soylar oqib o‘tadi. Bajavr qo‘rg‘oni yaqinidan oqib o‘tuvchi Vatalai soyi “Boburnoma”da “Bajavr suyi”, Jandol daryosi esa “Chandoval rudi” deb atalgan. Bajavr “Boburnoma”da Kunar, Nurgil va Savod viloyatlari bilan chegaradosh sifatida eslatiladi. Bobur Bajavrga yurish qilganiga qadar bu yerda mustaqil Bajavr (Jahongiriylar) sultonligi mavjud bo‘lgan. Mazkur viloyatni temuriylar tasarrufiga qayta kiritish maqsadida, Bobur 1518-yilda u yerga o‘z elchisini yuboradi, biroq Bajavr sultoni itoat etishdan bosh tortadi: “Bajavr qo‘rg‘onig‘a zo‘rlamoq doiyasi bila Bajavr qo‘rg‘onining yaqinig‘a tushub, Dilazok afg‘oniydin bir mu‘tabar kishini Bajavrg‘a yibordukkim, Bajavr sultonig‘a va elig‘a nasihat qilg‘aykim, qulluq maqomida bo‘lub, qal‘ani topshurg‘aylar. Ul jam‘i besaodati johil nasihatni qabul qilmay, parishon javoblar yibordilar. Farmon bo‘ldukim, cherik eli to‘ra va shotu va qo‘rg‘on olmoq asbobi tayyor qilg‘aylar”. Bajavrning burj (minora) va qalin mudofaa devorlari (boru) bilan o‘ralgan mustahkam qo‘rg‘onini zabt etish uchun Bobur zamonaviy qurol – to‘fanglardan unumli foydalanadi. To‘fangdozlar qal‘a devorlari ustidagi mudofaachilarni o‘qqa tutib, narvonlardan chirmashib chiqayotgan Bobur jangchilarini himoya qilib turgan. Shu tariqa askarlar qo‘rg‘ondan oshib o‘tib, qisqa muddatlarda uni zabt etishga muvaffaq bo‘lishgan: “Tengri taoloning lutfu inoyati bila mundoq mazbut va mustahkam qo‘rg‘on ikki-uch soati nujumiyda fath bo‘ldi”. Asirga tushganlarning deyarli barchasi ozod etiladi, faqat sultonlari va itoatsizlik ko‘rsatganlar jazolanadi. Bobur Bajavr fathi munosabati bilan Kobul, Badaxshon, Qunduz va Balx viloyatlariga fathnomalar yuboradi. Bajavr zabt etilgach, ushbu viloyatga sodiq bekларidan Xoja Kalonni hokim qilib tayinlaydi. Biroq keyinchalik uni o‘z huzuriga chaqirtirib olib, Bajavrga Mir Husaynbekni



yuborgan. Boburning Savod va Bhira viloyatlariga yurishi Bajavr orqali amalga oshirilgan. Bajavrning isyonkor va itoatsiz aholisini tinch yo'l bilan bo'ysindirish maqsadida, Bobur 1519-yilda yusufzayi qabilasining boshlig'i Shohmansur bilan tinchlik shartnomasi doirasida, uning qizi Afg'oniy Og'acha (Bibi Muboraka)ga ham uylanadi.

Bajavr tog'lari – Hindukushning Kunar tog' tizmalarii. Kobulga nisbatan sharq tomonda joylashgan. Uncha baland bo'lmasa-da, xarsang va o'tkir qoyatoshlar uni oshib o'tishni qiyinlashtirib, tabiiy himoya qal'asi vazifasini o'tagan. "Boburnoma"da tog'ning suvlari, o'simlik va hayvonot olami haqida muhim ma'lumotlar berilgan: "Yana bir Nijrov va Lamg'onot va Bajavr va Savod tog'lari qalin noju va chilg'o'za va balut va zaytun va xanjaqliq tog'lardur... Bu tog'larda Hinduston jonivorlari bisyordur, misli to'ti va shorak va tovu va lucha va maymun". Bobur Hindistonning hayvonot olami haqida yozganida ba'zan ularni Bajavr viloyati hayvonlari va o'simliklari bilan qiyoslaydi. Bajar tog'larida Bobur bug'u va marallarni ovlaganini ham eslatadi: "Panjshanba kuni, oyning o'n sekkizida Bajavr bila Chandoval arosidag'i tog'ni ovladuk. Bu tog'ning bug'u, marali qop-qora ranglik bo'ladur. Quyrug'u yana bir o'zgacha ranglik, g'olibu mundin quyi Hinduston bug'u, marali tamom qop-qora bo'lur".

Balnato'gi – Pokistonning Panjob shtatida, Potoxar platosining janubidagi hozirgi Ko'hi Baal Naat Jo'gi (Koh-e-Baal Naath Jogi) tog' tizmasi, boshqa nomi Ko'hi Namak (Tuzli tog'). Jelam daryosining Kaxan va Bunxar (Balxan) irmoqlari orasida joylashgan. Tosh tuzi konlariga boy bo'lib, bu yerda qadimdan katta miqdorda tuz olingan. Ushbu tog' ibodatxona nomidan olingan. Balnat (to'g'risi Bolenatx) Shiva xudosining nomlaridan biri bo'lib, "miskinlar homiysi" ma'nosini bildiradi. Qadimdan hindularning quyoshga sig'inadigan joyi. Tog'ning baland cho'qqisi (975 m) Tilla Jo'giyon (panjob tilida – "jo'gilar cho'qqisi", "avliyolar tepaligi") deb ataladi. Bu yerda jo'gilar (yoga bilan shug'ullanuvchilar)ning ibodatxonasi hozir ham mavjud bo'lib, hindularning muqaddas ziyoratgohlaridan biri sanaladi. Bobur Hindistonga kirib kelayotganida 1525 yil dekabr oylarida ushbu tog' etagida to'xtab o'tgan va uning Jud tog'i bilan tutash ekanligini ham qayd etgan: "Sinddin besh ko'ch ko'chub, oltinchida Jud tog'iga payvast Balnat jo'gining tog'ining tubida Bagyallar yurti rudqa kelib tushuldi". Abulfazl Alomiyning ma'lumotiga ko'ra, Akbarshoh ham ushbu toqqa, "Balnat ziyoratgohiga" tashrif buyurgan va bu yerning qadimiyligidan hayratda qolgan. Keyinchalik Jahongir mirzo ham ko'p marta ushbu joyga tashrif buyurgan ekan.

Bangash (Bangish) – Kobul viloyatidagi tuman (viloyat ham sanaladi). Bu mintaqa hozirgi Pokistonning Xaybar-Paxtunxva viloyatiga tegishli Kohat, Txal, Bannu va Spinghar shaharlari (shuningdek, Afg'onistonning Paktiya



viloyatidagi ayrim hududlar)ni o'z ichiga olib, shimolda Ko'hi Safed (Sping'or) tog'i janubda Sulaymon tog'larigacha bo'lgan tarixiy hududni qamrab oladi. Bangash bila Ningnahorni Ko'hi Safid tog'lari ajratib turadi. Hududi bo'ylab Kurram, Ko'hat, Qaytu, Tochi va Sind daryosining boshqa irmoqlari oqib o'tadi. Bangash eli asosan dehqonchilik (guruch va bug'doy yetishtirish) bilan shug'ullanishadi. Aholisi pushtu tilining Afridi-pashtu dialektida so'zlashadi. Bangash atrofida xugiyoni, xirilji singari afg'on qabilalari yashab, Boburga itoat etishni istashmagan. Bobur Kobulni egallagan yiliyoq bu tumanni bo'ysundirish uchun yurishlar qilgan. Bu harakatlarda Boburning ulug' begi Qosimbek keksayib qolganiga qaramay qattiq shijoat ko'rsatgan. Shu sababli Bobur Bangashni Qosimbekka juldu tarzida in'om qilgan. Bobur boshqa viloyatlarni bo'ysundirish va Hindistonni zabt etish bilan band bo'lgan davrda Bangash qabilalari yana itoatdan bosh tortgan: "Menga ham ulug' ishlar orag'a tushti, misli Qandahor va Balx va Badaxshon va Hindiston fathi, bu sabablardan Bangashning zabtig'a fursat bo'lmadi. Tengri rost kelturib fursat Bangashning qutto'ut-tariqi bila zabtig'a mutaayyindurmen".

Bangash rudi – hozirgi Kurram daryosi, Afg'onistonning Paktiya va Pokistonning Xaybar-Paxtunxva viloyatlaridan oqib o'tuvchi transchegaraviy daryo, Sind daryosining o'ng irmog'i. Daryoning o'rta havzasi hozir ham "Bangash" deb ataladi. Uzunligi 88 km. Ko'hi Safid (Sping'or) tog'laridan boshlanib, Txal (Tall) va Bannu orqali o'tib, Isohayl shahrining janubidan Sind daryosiga quyiladi. Qadimda Mo'ltondan Gardiz orqali Kobulga eltuvchi yo'l ushbu daryo bo'ylab o'tgan. "Boburnoma" Kurram daryosi viloyatning asosiy suv ta'minoti sifatida eslatilgan: "Bangash rudi Bannug'a chiqar, Bannu bu suv bila ma'murdur".

Bannu – Pokistonning Xaybar Paxtunxva viloyatida, Kurram (Bangash rudi) va Gambil daryolari orasida joylashgan tuman va shahar. Shahar sifatida miloddan avvalgi 1-ming yillikda vujudga kelgan. Avestoda "Varna (Varnu) shaklida tilga olingan. Sulton Mahmud G'aznaviy mazkur tuman orqali bir necha bor Hindistonga yurish qilgan. Bobur davrida Dehli sultonligi tarkibida bo'lgan. "Boburnoma" da Kobulning janubidagi tarixiy o'lka sifatida eslatilib, uning aniq chegaralari qayd etilgan: "...Bannu tup-tuz yerda voqi' bo'lubtur. Shimoli Bangash va Nag'arning tog'laridir... Janubi Cho'pora (Sulaymon tog'lari) va Sind suyidir, sharqi Dinkot, g'arbi Dashtkim, Bozoru-Tok ham derlar". Bannudan Kobulga eltuvchi yo'l asosan uch yo'nalish bo'yicha amalga oshirilgan: shimoli-sharqiy yo'nalish – Xangu–Ko'hat–Haybar dovoni orqali Odinapur (Jalolobod) – Kobul; shimoliy yo'nalish – Kurram daryosi bo'ylab Tiyl (Txal) – Purchinor – Bangash tog'lari orqali Butxok – Kobul; shimoli-g'arbiy yo'nalish – Xost (Dasht)–Gardiz–Barakston tog'lari orqali – Kobul. Temuriylar davrida bu yerda kuroniy, kivi, suriy, isoxayli, niyoziy



kabi afg'on qabilalari yashagan. Bobur Kobulni qo'lga kiritgandan so'ng janubiy hududlarga, jumladan, Bannuga yurishlar (1504 y.) qilib, u yerdagi itoatsiz afg'on qabilalarini bo'ysundirgan. Bobur qo'shini Bangash va Nag'ar tog'larini oshib o'tishi paytida yo'lni yo'qotib, katta mashaqqatlar bilan Bannuga yetib borgan. Buning uchun Bobur askarlari yo'l boshlovchi bo'lgan Malik Busa'id Kamariyni ayblashgan. Bannudagi afg'on qabilalari toqqa chiqib, mustahkamlanib olishgan. Bobur tomonidan ularga qarshi yuborilgan Jahongir Mirzo kivi qabilasini itoatga keltirgan. Qabila boshlig'i Shodixon Bobur huzuriga o't tishlab kelgan. Bu odat ramziy ma'noga ega bo'lib, taslim bo'lish, itoat etishni anglatar edi. Bobur bundan ta'sirlanib, kivi qabilasidan tushgan asirlarni ozod qilgan.

Bahat suyi – Pokistonning Panjob viloyatidan oqib o'tuvchi kichik daryo. Chinob daryosining o'ng irmog'i (Vazirobod, Qodirobod shaharlaridan oqib o'tib, Jalolpur yaqinidan Chinobga qo'yiladi). Hozirgi kunda ham "Bahat daryosi" (Bahat Nala) deb yuritiladi. Daryoning shimoliy qismidan parallel ravishda Jelam daryosi oqib o'tadi. "Boburnoma"da Hindistonning boshqa daryolari qatorida sanab o'tilgan. Bobur Bhira viloyatidan oqib o'tuvchi daryo sifatida eslatadi: "Namoz peshin bo'la Bhira elig'a zarar va zahmat tegurmay, Bhiraning sharqida Bahat suyining yoqasida bir zorda tushuldi...Andin ko'chub, Bahat suvining Jelamdin quyiyoq guzar bila kechib tushtuk... Chanob suvi yoqasida tushuldi. Yo'ldin borib, Bahlulpurkim, xolisa edi, sayr qilduk...Sahrinddin shimol sari boqa olti daryokim, Sind va Bahat va Chanob va Raviy va Biyah va Satlaj bo'lg'ay".

Bahlulpur – Pokistonning Panjob viloyati, Gujrot tumanidagi hozirgi Behlolpur (Behlolpur) shahri. Sialkotdan taxminan 48 km shimolda, Chinob daryosining o'ng sohilida joylashgan. Dehli sultoni Bahlulxon Lo'diy hukmronlik (1451–1489) yillarida qurilgan. Qo'rg'oni baland jar ustida barpo etilgan bo'lib, uchta daryoning (shimoliy qismida Jammu-Taviy va Manavar Taviy daryolari Chinobga chap va o'ng irmoq sifatida) kelib qo'shilishi natijasida ajoyib tabiiy manzara hosil qiladi. Bahlulpurning go'zal tabiati, qulay joylashuvi, salqin obi havosi Boburga juda ma'qul kelgan va sharoit taqozo etsa, Siyalkotda yashagan aholining bir qismini ushbu manzilga ko'chirishni ham niyat qilgan: "Bahlulpurkim, xolisa edi, sayr qilduk. Qo'rg'oni Chanob suvining yoqasida baland jar ustida voqi' bo'lubtur, Xeyli xotirg'a yoqti. Siyalkot elini munda kelturur xayol qilduk. Inshoolloh fursat bo'lg'och-o'q kelturulgusidur". Bahlulpur nomli shahar va qishloqlar Hindistonning boshqa hududlarida ham mavjud: 1) Bihar viloyati, Patna sh.ning shimolida, Gandak daryosining o'ng sohilida; 2) Uttar-Pradesh shtati, Ayodhiya shahrining janubida, Gomati daryosining (Ganganing irmog'i) o'ng sohilida; 3) Haryana shtati, Panipatning shimolida, Jamnaning o'ng sohilida.



Biyla – Pokistonning Balujiston viloyatidagi shahar. Mehtar Sulaymon tog‘larining janubi-sharqida, Mastung (Dasht) shahridan janubda, Kular daryosining o‘ng sohilida joylashgan. Tabiati quruq, tog‘ va dashtdan iborat, aholi chorvachilik bilan shug‘ullanadi. “Boburnoma”da Mo‘lton viloyatiga tegishli qasaba, uning hududidan oqib o‘tuvchi daryoni esa “Biyla suyi” sifatida eslatilgan: “Dashttin ko‘chub Mehtar Sulaymon tog‘ini domanalab janub sari boqa yurub, ... Multon tavobii kentlaridin Biyla suyining yoqasidag‘i Multon tavobii kentlaridin Biyla degan qasabachag‘a yetishildi”.

Biymrugiriy (Bimrugiriy) – Panjob viloyatidagi tarixiy tuman, hozirgi Pokistonning Jelam va Chinob daryolari oralig‘ida joylashgan. Amir Temur Hindistonni egallaganidan so‘ng Shohrux va uning vorislari tasarrufida bo‘lgan. Sulton Abusa‘id zamonida Temuriylar hokimiyatidan ajralib chiqqan, ammo Bobur o‘z tasarrufiga kiritib, Vali Qizilni hokim etib tayinlagan. Boboqora (Boboqaro) – Pokistonning Xaybar-Paxtunxva viloyati, Bajavr vodiysidagi aholi maskani, shu nomdagi soy va chashma. Bajavr qo‘rg‘onining shimolida, hozirgi Shayh Bobo (Shaikh Bāba) qishlog‘iga to‘g‘ri keladi. Chashma o‘rnida avliyo Shayh Bobo Karam ziyoratgohi mavjud. Ziyoratgoh janubidan Panjkura daryosining irmog‘i Jandol daryosi oqib o‘tadi. Boboqora soyi ham hozirda shu nom bilan Babukara (Babukara Kwar) deb ataladi. 1509-yili Bobur Bajavr qo‘rg‘onini egallaganidan so‘ng, mazkur chashma bo‘yida dam oladi: “[Bajavr] qo‘rg‘on fath bo‘lg‘ondin so‘ng, ... Tonglasi ko‘chub, Bajavrning julgasida Boboqaro chashmasiga tushuldi”. Bu yerda u asirga tushgan Bajavr elini ozod qilib, ularning ahli ayollarini qaytarib beradi. Bajavr zabti to‘g‘risida Kobul, Badaxshon, Qunduz va Balxga fathnomalar jo‘natadi.

Bozor va toq (Bozoru-Tok) – Pokistonning Xaybar Paxtunxva viloyatida, Janubiy Vaziriston o‘lkasidagi hozirgi Tonk tumanidagi Bozoyi qishlog‘i va Tonk shahri. Tuman markazi Tonk (Tok, Tonk / تانک / تاک) shahri, Darai Ismoilxon shahrining shimoli-g‘arbida, Sind daryosining chap irmog‘i bo‘lmish Tonk-Zam (Tank-Zam) daryosining o‘ng sohilida joylashgan. Bozoyi qishlog‘i esa, Tonk shahridan 20 km g‘arbda joylashgan. Qishloq nomi Pokiston va Afg‘onistonda yashovchi Bozoyi (Bazai) pushtun qabilasi nomidan olingan. Bozoyi qabilalari, asosan, Balujistonning tog‘li hududlarida, jumladan Kvetta, Bannu, Mastung (Dasht), Darayi Ismoilxon tumanlarida istiqomat qilishadi. Garchi mazkur hududlar Bannu viloyatining janubida joylashgan bo‘lsada, biroq “Boburnoma”da Bannuning g‘arbida deb ko‘rsatilgan: “(Bannuning) g‘arbi Dashtkim, Bozor va Tok ham derlar”²⁷. Agar Hindistondan Afg‘oniston tomon yurilsa, u holda Bozoru-Tok hududlari, Bobur qayd etganidek, Bannuga nisbatan g‘arbda joylashganini ko‘rishimiz mumkin. Bora suyi – Pokistonning Xaybar-Paxtunxva viloyatidagi kichik daryo, Kobul daryosining o‘ng irmog‘i. Daryo yuqori havzasida Rajgal deb nomlanadi. Sping‘or (Safedko‘h)



tog'laridagi Tira darasi va vodiysi (hozirgi kunda Varsak to'g'oni)dan boshlanib, Bora shahri orqali Peshovarning janubi-sharqidan oqib kelib, Akbarpur shahri yaqinidan Kobul daryosiga qo'yiladi. "Boburnoma"ning 909h (1503-1504) yil voqealari bayonida eslatilgan. Bobur Xaybar dovonini oshib Jamrud orqali Bora daryosini kechib o'tib Bangash, Ko'hat va Hangu elini bo'ysundirish uchun qo'shin tortgan: "Uluq ixtiyor kishi Kuhat sarini maslahat ko'rub, o'zining muddaosining isbotig'a necha tonuq ham o'tkardi yesa, suv o'tmakni va Hinduston azimatini fasx qilib, Jomdin ko'chub, Bora suyini o'tub, Muhammad Pix dobonig'a yovuqroq kelib tushuldi". Bora daryosining Peshovar sharqida joylashgan Choxa-Gudjor qishlog'i hududidan oqib o'tuvchi qismida, Shohjahon davrida, 12 arkali toshko'prik barpo etilgan. "Bora ko'prigi" nomi bilan mashhur bo'lgan mazkur ko'prikning uzunligi 92 m, eni 5,5 m.ni tashkil etib, bugungi kunda ham faoliyat ko'rsatadi. "Bora ko'prigi" - Shohjahon davrida qurilgan 12 arkali toshko'prik. Peshovar tumani Choxa-Gudjor qishlog'i.

Shuni alohida qayt etib lozimki, Zahiriddin Muhammad Bobur "Boburnoma"da yuqorida nomlari keltirilgan hududlar haqidagi ma'lumotlar batafsil o'rganilgan holatda ko'plab tadqiqot ishlari olib borilib kelinmoqda. Bu esa mazkur hududlar haqidagi ma'lumotlarni kengayishiga xizmat qilishi, shubhasiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – T.: O'qituvchi, 2012.
2. Zahiriddin Muhammad Bobur. Devon. – T.: Fan, 1994.
3. Zahiriddin Muhammad Bobur xazinalari. Mubayyan va nasriy bayoni. – T., 2014.
4. Mirzo Muhammad Haydar Ayoziy. Tarixi Rashidiy. – T.: O'zbekiston, 2011.
5. Azimjonova S. Gosudarstvo Babura v Kabule i Indii. – M.: Nauka, 1977.